aks ettiradi. Dju Desi [7] ajratiladigan so‘lar birgalikda ishlatilganda mustaqil so‘z sifatida tasniflanishi mumkinligini, ularning ajratilgan shakli so‘z birikmasi tabiatiga ko‘proq mos kelishini ta’kidlagan. Djan Shoukan [2], Syin Fuyi [13] kabi olimlar ham ajratilgan so‘zlarning ajratilganda so‘z birikmasi, qo‘shma holda mustaqil so‘z kabi tasniflanishini targ‘ib qilganlar. Bu qarash ajratiladigan so‘zlarning ikki shaklini, ya’ni birgalikda va ajratilgan holda qo‘llaniladigan shaklini aniq aks ettiradi.

To‘rtinchi qarash: ajratiladigan so‘zlar fe’l va so‘z birikma orasidagi til birligi, ya’ni “oraliq holat” nazariyasi ham mavjud. Ushbu qarashga ega olimlar ajratiladigan so‘zlar mustaqil so‘z va so‘z birikmasi xususiyatlariga ega bo‘lgan oraliq holatdagi birlik deb hisoblashadi. Ularning fikricha, ajratiladigan so‘zlarni mustaqil so‘z yoki so‘z birikmasining biriga tehishli deb emas, balki ikkisining o‘rtasida joylashgan lingvistik hodisa sifatida ko‘rish kerak. Ushbu qarashni targ‘ib qiluvchi olimlar orasida Djou Zhishang [6], Ren Fengqin [10] va Syao Yan [12] bor.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ajratiladigan so‘zlarni ontologik o‘rganish nuqtai nazaridan, mustaqil so‘z, ya’ni fe’l yoki so‘z birikmasi sifatida tasniflanishi keng tarqalgan ikki qarashdir. Ajratiladigan so‘zlar xitoy tili darsliklarida “ajratiladigan so‘z” deb berilib, odatda aynan fe’l yoki so‘z birikmasi deb belgilanmaydi, ularning ajratilgan shakliga yaxshi tushuntirish berilmagani bois, ko‘p o‘quvchilar mazkur birliklarni qo‘llashda xatoliklarga yo‘l qo‘yishadi. Ajratiladigan so‘zlar xitoy tilida keng qo‘llanilgani sabab, xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitishda katta ahamiyat kasb etadi. Ularning mohiyatini to‘g‘ri belgilash, fe’l yoki so‘z birikmasi deb o‘rgatishga aniqlik kiritish o‘qituvchilarning o‘qitish jarayoni hamda o‘quvchilarning mazkur birlikni puxta egallashi uchun muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). 张静.汉语语法问题[M].北京：中国社会科学出版社,1987.
(2). 张寿康.关于汉语构词法[M].人民出版社,1956.
(3). 赵金铭.能扩展的“动+名”格式的讨论[J].语言教学与研究, 1984(02):4-23.
(4). 赵元任.汉语口语语法[M].北京：商务印书馆,1979
(5). 钟锳.谈怎样分别词和语[J].中国语文,1954(12).
(6). 周上之.离合词是不是词？[J].暨南大学华文学院学报,2001(04):41-46.
(7). 朱德熙.语法讲义[M].北京:商务印书馆,2003.
(8). 陆志韦.汉语的构词法[M].北京：科学出版社,1957.
(9). 吕叔湘.汉语语法分析问题[M].北京:商务印书馆,1979.
(10). 任凤琴.论离合词与词组的区分[J].语文学刊,2005(4):114-117.
(11). 向小清.对离合词性质界定的看法[J].齐齐哈尔师范高等专科学校学报. 2008(03):40-41.
(12). 肖燕.基于问卷调查的日语事实性条件句习得研究[J]. 语言与文化研究,2013(01):69-74.
(13). 刑福义.汉语语法学[M].长春：东北师范出版社，1996.
(14). 王彬.由扩展法看“离合词”[J].铜仁师范高等专科学校学报(综合版),2006(05):21-34.

Sa’dullayeva Mohira Sobirovna (f.f.f.d. (PhD), Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi, DSc mustaqil izlanuvchisi; E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com; ORCID 0009-0004-5071-7066)

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA DIALEKTAL BIRLIKLARNI LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida dialektal birliklarni lingvokulturologik tadqiq etishning nazariy asoslari tizimli yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi dialekt birliklarining madaniy ma’nolarini aniqlash, ularni milliy konseptlar, qadriyatlar va kommunikativ stereotiplar bilan bog‘liq holda talqin qilishga xizmat qiladigan integrativ nazariy modelni asoslashdan iborat. Metodologiya sifatida lingvokulturologik tahlil, semantik-prototipik yondashuv, konseptual tahlil, etnolingvistik izoh, diskursiv-pragmatik kuzatuv hamda dialektografik ma’lumotlarni korpuslash tamoyillari uyg‘unlashtirildi. Ilmiy yangilik dialektal birliklarni faqat hududiy farqlanish natijasi sifatida emas, balki madaniy xotira va ijtimoiy tajriba kodlari sifatida talqin etishning mezonlari ishlab chiqilganida, shuningdek, dialektizmning lingvokulturologik tavsifi uchun minimal parametrlar to‘plami taklif etilganidadir. Natijalar dialekt birliklarini madaniy indekslar sifatida qayd etish o‘zbek leksikografiyasi va ta’lim amaliyoti uchun yangi imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *dialektal birlik, lingvokulturologiya, konsept, madaniy semantika, etnolingvistika, dialektografiya, pragmatika.*

Саъдуллаева Мохира Собировна (доктор философии (PhD) по филологическим наукам, преподаватель Навоийского государственного университета, независимый соискатель степени DSc; E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com; ORCID: 0009-0004-5071-7066)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ДИАЛЕКТНЫХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация. *В статье системно раскрываются теоретические основания лингвокультурологического изучения диалектных единиц в узбекском языкознании. Цель исследования состоит в обосновании интегративной модели интерпретации диалектных единиц, выявляющей их культурные смыслы и связи с национальными концептами, ценностями и коммуникативными стереотипами. Методология включает лингвокультурологический анализ, семантико-прототипический подход, концептуальный анализ, этнолингвистическое толкование, дискурсивно-прагматическое наблюдение, а также принципы корпусирования диалектографических данных. Научная новизна заключается в разработке критериев трактовки диалектных единиц не только как результата территориальной вариативности, но и как кодов культурной памяти и социального опыта; предложен минимальный набор параметров для лингвокультурологического описания диалектизмов. Полученные результаты демонстрируют, что фиксация диалектных единиц как культурных индексов расширяет возможности узбекской лексикографии и образовательной практики.*

Ключевые слова*: диалектная единица, лингвокультурология, концепт, культурная семантика, этнолингвистика, диалектография, прагматика.*

Sadullaeva Mokhira Sobirovna, PhD in Philological Sciences, Lecturer at Navoi State University, Independent Researcher (DSc); E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com; ORCID: 0009-0004-5071-7066)

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE LINGUOCULTURAL STUDY OF DIALECTAL UNITS IN UZBEK LINGUISTICS

Annotation. *This article outlines the theoretical foundations for a linguoculturological study of dialectal units in Uzbek linguistics. The aim is to justify an integrative model that interprets dialect items by uncovering their cultural meanings and their relations to national concepts, value systems, and communicative stereotypes. The methodology combines linguoculturological analysis, a semantic-prototypical approach, conceptual analysis, ethnolinguistic interpretation, discourse-pragmatic observation, and principles for corpus-based organization of dialectographic data. The scientific novelty lies in formulating criteria for treating dialectal units not merely as outcomes of territorial variation but as codes of cultural memory and social experience, and in proposing a minimal set of parameters for linguoculturological description of dialectisms. The results indicate that documenting dialectal units as cultural indices can significantly enhance Uzbek lexicography and contribute to more culturally informed language education and research design.*

Keywords: *dialectal unit, linguoculturology, concept, cultural semantics, ethnolinguistics, dialectgraphy, pragmatics.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligida dialektal birliklar, ko‘pincha, hududiy variantlar, tarixiy qatlamlar yoki adabiy til me’yoriga nisbatan chetlanishlar sifatida tasvirlab kelingan. Biroq so‘nggi yillarda gumanitar fanlarda “til va madaniyat” tutashuv nuqtalarini markazga chiqaradigan paradigmal siljish dialekt materialiga ham boshqacha ko‘z bilan qarashni taqozo etmoqda: dialektizm nafaqat lokal fonetik yoki leksik o‘ziga xoslik, balki muayyan jamoaning tajribasi, kundalik amaliyoti, qadriyatlar tizimi va ramziy tasavvurlarini tashuvchi birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli dialektal birliklarni lingvokulturologik talqin qilish, bir tomondan, milliy madaniyatning ichki ko‘pqatlamliligini ko‘rsatish, ikkinchi tomondan, adabiy til markazida qolib ketayotgan madaniy ma’nolarni qayta tiklash imkonini beradi. Bu yo‘nalishning dolzarbligi shundaki, dialektlar bo‘yicha klassik dialektografik ishlar ko‘p bo‘lsa-da, ulardagi birliklarning madaniy semantikasi, konseptual yuklamasi va diskursiv vazifalari izchil nazariy mezonlar asosida yetarli darajada umumlashtirilmagan. O‘zbek dialektologiyasi an’analarida boy empirik baza yaratilgani e’tirof etilgan holda, ushbu bazani lingvokulturologik tahlil uchun qayta “o‘qish” zarurati mavjud [1;2-b.]. Xalqaro tilshunoslikda esa lingvokulturologiya va etnolingvistika yo‘nalishlari konsept, madaniy skript, indeksikal ma’no, ramziy kapital kabi tushunchalar orqali til birliklarining madaniyatga bog‘liqligini talqin qilishda sezilarli metodologik tajriba to‘pladi [5;6-b.]. Shunga qaramay, ushbu yondashuvlarning o‘zbek dialektal materialiga moslashtirilgan nazariy modeli, ayniqsa, “dialektal birlik”ning lingvokulturologik maqomini belgilaydigan minimal parametrlar majmuasi hali ham yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Ushbu maqolaning maqsadi o‘zbek tilshunosligida dialektal birliklarni lingvokulturologik tadqiq etishning nazariy asoslarini tizimlashtirish, dialektizmni madaniy semantika tashuvchisi sifatida talqin qi-

lish mezonlarini belgilash hamda integrativ nazariy modelni taklif etishdan iborat. Mazkur maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar qo‘yildi: birinchidan, dialektal birlikni lingvokulturologik obyekt sifatida ajratishning nazariy shartlarini aniqlash; ikkinchidan, dialektizmning madaniy ma’nosini ochuvchi parametrlar to‘plamini asoslash; uchinchidan, dialekt materialini tahlil qilishda konseptual, etnolingvistik va pragmatik yondashuvlarning uyg‘unlashuv mexanizmini ko‘rsatish. Ilmiy yangilik dialektal birliklarni “hududiy variant” chegarasida emas, “madaniy indeks” doirasida izohlashga xizmat qiladigan mezonlar tizimini taklif etish, shuningdek, o‘zbek dialektologiyasi ma’lumotlarini lingvokulturologik ma’lumot bilan boyitish imkonini beradigan nazariy ramkani ishlab chiqish bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyat dialektal birliklarni izohli va etimologik lug‘atlar, o‘quv adabiyotlari hamda elektron korpuslarda madaniy belgilari bilan qayd etish tamoyillarini takomillashtirishga borib taqaladi [3;4].

Tadqiqot usullari. Tadqiqotning materiallar bazasi sifatida o‘zbek dialektologiyasida to‘plangan leksik va frazeologik birliklar, dialektal matnlar (og‘zaki nutq namunalarining yozuvga ko‘chirilgan shakllari), shuningdek, ayrim hududiy atamalar va nomlash modellarini aks ettiruvchi dialektografik manbalar konseptual-metodologik qayta tavsiflandi. Empirik misollarni statistik jihatdan ko‘paytirishdan ko‘ra, nazariy mezonlarni aniqlash maqsadi ko‘zlanganligi uchun material “namuna-korpus” tamoyili asosida saralandi: turmush marosimlari, qarindoshlik, mehnat qurollari, taom nomlari, iqlim va landshaftga oid nomlashlar hamda baholovchi birliklar kabi madaniy semantika zich bo‘lgan sohalar ustuvor tanlandi. Metodologik yondashuvlar integratsiyasi uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda lingvokulturologik tahlil dialektal birlikning madaniy presuppozitsiyasi, ya’ni, birlikni tushunish uchun zarur bo‘lgan “orqa fon bilimlari”ni tiklashga qaratildi. Ikkinchi bosqichda semantik-prototipik yondashuv yordamida dialektal ma’noning yadro va periferik komponentlari ajratildi, bu esa dialektizmning adabiy tilga nisbatan farqini faqat “sinonimiya” darajasida emas, balki konseptual tuzilish farqi sifatida ko‘rsatish imkonini berdi. Uchinchi bosqichda diskursiv-pragmatik kuzatuv dialektal birlikning ijtimoiy indeksikal vazifalarini, ya’ni “kim gapiryapti”, “qaysi vaziyatda” va “qanday munosabatni bildiradi” kabi omillarni tahlilga kiritdi; bunday yondashuv sotsiolingvistik konsepsiyalar bilan metodologik uyg‘unlikda asoslandi [6]. Metodlar tanlovi lingvokulturologiyada konsept va madaniy semantika, etnolingvistikada esa til orqali an’anaviy bilimlar tizimini rekonstruksiya qilish tamoyillari bilan ilmiy jihatdan asoslandi [5]. Natijalarni umumlashtirishda analitik-sintez, tasniflash va modellash usullari qo‘llanildi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida dialektal birliklarni lingvokulturologik o‘rganish uchun nazariy ramka sifatida “dialektizmning madaniy indeksliligi” konsepsiyasi taklif etildi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, dialektal birlik kamida uch qatlamli mazmunga ega bo‘ladi: nominativ qatlam (denotativ ko‘rsatish), konseptual qatlam (lokal tajriba asosida shakllangan tasnif va prototiplar), hamda ijtimoiy-pragmatik qatlam (identifikatsiya, baholash, yaqinlik yoki masofa yaratish). Shunga mos ravishda dialektal birlikning lingvokulturologik tavsifi uchun minimal parametrlar to‘plami ishlab chiqildi: birinchidan, madaniy domeni (masalan, marosim, xo‘jalik, qarindoshlik, taom, landshaft); ikkinchidan, konseptual motivatsiyasi (nomlashning asosiy belgisi va prototipi); uchinchidan, aksial qadriyat yo‘nalishi (ijobiy, neytral, salbiy baholashning madaniy modeli); to‘rtinchidan, diskursiv rejalashuv (qaysi nutq janrlarida va qanday vaziyatlarda faol); beshinchidan, intergeneratsion barqarorlik darajasi (faol, chekinayotgan, arxaiklashgan); oltinchidan, ekvivalentlilik turi (adabiy tilda to‘liq, qisman yoki ekvivalentizatsiyalanmaydigan birlik). Ushbu parametrlar dialektizmni oddiy “variant” sifatida qayd etishdan ko‘ra, uning madaniy-ma’no xaritasini chizishga xizmat qiladi.

Natijalardan yana biri shundaki, dialektal birliklarning madaniy semantikasi ko‘pincha “siqilgan” shaklda namoyon bo‘lib, ularni izohlashda minimal kontekst yetarli bo‘lmaydi; shu bois dialektizmni lingvokulturologik qayd etish kontekst paketini talab qiladi. Kontekst paketi tarkibiga tipik kollokatsiyalar, pragmatik yorliqlar (hazil, erkalash, kinoya, odobiy cheklov) hamda etnografik izohning qisqa ko‘rinishi kiradi. Shuningdek, dialektal birliklar ko‘pincha ikkilamchi nomlash orqali, ya’ni, metafora va metonimiya mexanizmlari bilan madaniy tajribani tilga ko‘chiradi; bu holat dialektizmning “obyekt nomi”dan “tajriba modeli”ga o‘tishini ko‘rsatadi. Taklif etilgan model doirasida dialektal birliklarni konseptlararo bog‘lanishlar tarmog‘ida tasvirlash imkoniyati ochildi: masalan, mehnatga oid birliklar faqat predmetlarni emas, mehnat etikasi, hamkorlik, mavsumiylik kabi tushunchalarni ham indekslaydi. Natijalar dialektal birliklarning lingvokulturologik tasnifi uchun nazariy jihatdan izchil, amaliy jihatdan lug‘at va korpusga tatbiq etiladigan parametrlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Muhokama. Olingan natijalar o‘zbek dialektologiyasi an’anaviy tavsifiy yo‘nalishidan metodologik jihatdan farq qiladi: klassik yondashuvda dialekt birliklari asosan fonetik, grammatik va leksik farqlar ko‘rinishida sistemalashtirilgan bo‘lsa, taklif etilgan model dialektizmning madaniy-semiotik vazifasini mar-

kazga qo‘yadi. Bu farq dialekt materialini adabiy tilga “mos” yoki “nomos” ekvivalentlar orqali qisqartirib izohlash amaliyotining cheklanganligini ko‘rsatadi. Jumladan, ayrim dialektizmlar adabiy tilda semantik jihatdan yaqin birlik bilan almashtirilganda nominativ ma’no saqlangandek ko‘rinsa-da, konseptual motivatsiya va baholovchi komponent yo‘qoladi, bu esa madaniy ma’no yo‘qotishiga olib keladi. Shu ma’noda, dialektizmning ekvivalentlilik turini (to‘liq, qisman, ekvivalentizatsiyalanmaydigan) parametr sifatida kiritish lingvokulturologik tavsifning zarur sharti bo‘lib chiqadi.

Natijalar xalqaro lingvokulturologik va etnolingvistik qarashlar bilan hamohangdir: til birliklarini madaniy bilimlar tizimi va identitet ko‘rsatkichlari bilan bog‘lab talqin qilish yondashuvi konseptual tahlil hamda indeksikal ma’no nazariyalarida muhim o‘rin tutadi [5;6]. Biroq o‘zbek til materiali uchun muhim jihat shundaki, dialektlar o‘rtasidagi farqlanish ko‘pincha nafaqat “lokal obyektlar” bilan, balki umumturmush birliklarining turlicha konseptualizatsiyasi bilan ham izohlanadi; demak, lingvokulturologik tahlil “etnografik ekzotika”ni qidirish bilan cheklanmasligi, balki oddiy leksik qatlamda ham madaniy kodlarni aniqlashi kerak. Bu yondashuv o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha mavjud manbalarni qayta talqin etishga undaydi va dialektografik qaydlarda madaniy-metama’lumotni tizimli berish zaruratini kuchaytiradi [1;2]. Shu bilan birga, amaliyotga tatbiq nuqtayi nazaridan, dialektal birliklarni lug‘atlarda belgilashning yagona standartlari hali shakllanmaganligi sababli, taklif etilgan parametrlar majmuasi leksikografik normalashtirish uchun tayanch bo‘lishi mumkin [4].

Xulosa. Maqolada o‘zbek tilshunosligida dialektal birliklarni lingvokulturologik tadqiq etishning nazariy asoslari tizimlashtirildi va dialektizmni madaniy indeks sifatida talqin qiluvchi integrativ model taklif etildi. Dialektal birlikning nominativ, konseptual hamda ijtimoiy-pragmatik qatlamlardan tarkib topishi asoslab berildi va lingvokulturologik tavsif uchun minimal parametrlar majmuasi ishlab chiqildi. Ushbu parametrlar dialektizmning madaniy domeni, konseptual motivatsiyasi, qadriyat yo‘nalishi, diskursiv faolligi, avlodlararo barqarorligi hamda ekvivalentlilik turini izchil qayd etish imkonini beradi. Natijada dialekt materialini faqat hududiy farq sifatida emas, balki madaniy xotira va ijtimoiy tajriba kodlari sifatida qayta o‘qish zarurligi ko‘rsatildi. Taklif etilgan yondashuv o‘zbek dialektologiyasi, leksikografiya va ta’lim amaliyotida dialekt birliklarining madaniy ma’nolarini to‘liqroq aks ettirishga metodologik zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Polivanov E.D. O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Fan”, 1968. 214-bet.

(2). Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1978, 256-bet.

(3). Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati muammolari. Toshkent, “Fan”, 1983, 192-bet.

(4). Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002, 168-bet.

(5). Wierzbicka A. Semantics, Culture, and Cognition: Universal Human Concepts in Culture-Specific Configurations. New York, Oxford University Press, 1992, 512 p.

(6). Silverstein M. Indexical order and the dialectics of sociolinguistic life. Language and Communication. Amsterdam, Elsevier, 2003, vol. 23, № 3–4, p. 193–229.

(7). Sa’dullayeva M.S. O‘zbek shevalarida polisemiya (o‘g‘uz lahjasi misolida). (f.f.f.d. PhD) dissertatsiyasi). Jizzax, 2025, 170-bet.

Turobova Nargiza Arolovna (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti; nargizaralovna@gmail.com)

ANTROPOTSENTRIK TILSHUNOSLIK DOIRASIDA BADIIY MATN PRAGMATIKASI: NAZARIYA VA TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan pragmalingvistika nuqtayi nazaridan badiiy matn tahlili yoritilgan. Xususan, yozuvchi Ulug‘bek Hamdam asarlari misolida qahramonlar nutqidagi yashirin ma’nolar, nutqiy aktlar, presuppozitsiya va implikaturalar tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy diskursning kommunikativ va ta’sirchanlik xususiyatlari, muallif intensiyasi hamda o‘quvchi persepsiyasi o‘rtasidagi munosabatlar ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *diskurs, pragmatik kontekst, imlikatura, muallif intensiyasi, nutqiy strategiya, presuppozitsiya, morfopragmatika*

ПРАГМАТИКА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА В РАМКАХ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОГО ЯЗЫКОЗНАНИЯ: ТЕОРИЯ И АНАЛИЗ

Аннотация. *В данной статье рассматривается анализ литературных текстов с точки зрения прагмалингвистики, одного из современных направлений лингвистики. В частности, на при-*